



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

Kunjut O'simligining Dorivorlik Xususiyatlari Va Yetishtirish Texnologiyasi

Otaqulova Sevinch Valijon qizi

Biologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola kunjut o'simligi haqida qiziqarli ma'lumotlar va hozirgi kunda kunjut o'simligining dorivorlik xususiyati va uni lalmikor yerlarda yetishtirish texnologiyasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sesamum indicum L., ko'sak, alein, linol, pavletin, stearin, trombosit, oqsil, vitamin E, fitosterin, sezamol, moyli ekin, dorivor.

Kirish.

Kunjut - Sesamum indicum indiyoskiy, Pedaliaceae - kunjutdoshlar oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Bo'yi 60-120 sm ga yetadi. Afrikaning janubiy tropiklarida yovvoyi holda o'sadi. Qadimiy moyli ekinlardan biridir. Bu o'simlik Pedaliaceae oilasiga mansub bo'lib, asosan issiq va quruq iqlim sharoitlarida yaxshi o'sadi. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, tuproqning 1-1,5 metrgacha chuqurligiga kiradi.

Poyasi to'g'ri, ba'zan shoxlanadi, balandligi 50–150 sm. Barglari qarama-qarshi yoki navbatma-navbat joylashgan, shakli o'zgaruvchan (yoyilgan yoki uzunchoq) pastki barglari bandli. Gullari yirik, qo'ng'ir yoki pushti rangda, bir uyli va ikki jinsli. Bir kun davomida gullaydi, kechqurun to'kiladi. Mevasi ko'sakcha (kapsula) Ko'sakchada 80 tacha urug bo'ladi, urug'lar oq rangdan qora ranggacha bo'ladi.[1]

Urug'lari mayda, silliq, oq, jigarrang yoki qora rangda. Kunjut aslida tropik Afrikadan kelib chiqqan, ammo hozirda u dunyoning ko'plab hududlariga tarqalgan. Ko'proq quyidagi hududlarda uchraydi: Hindiston, Xitoy, Myanma, Tailand Nigeriya, Sudan, Uganda.

O'zbekistonda asosan Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida ekiladi.

Adabiyotlar tahlili: Ushbu mavzu yuzasidan bir qator ilmiy adabiyotlarda, maqolalarda va internet saytlarida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, O'Ahmedov, A. Ergashev, A.A. Abzalovlar muallifligida 2020 yilda chop etilgan "Dorivor o'simliklar va ularni yetishtirish texnologiyasi" nomli darslikda kunjut o'simligini o'stirish bo'yicha ma'lumotlar yetarlicha berilgan. Xolmatov X.X, Ahmedov U.A ning 2007 yilda chop etilgan "Farmakognoziya-1 qism" kitobida ham kunjut o'simligi haqida ma'lumot berilgan.

A. Majidovning 2017-yildagi "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" ilmiy nashriyotida kunjut o'simliklarini yetishtirish texnologiyasi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

F. Karimov, H. Shamsiyev, I. Jo'rayevning 2010-yildagi "O'simlikshu noslik" kitobida kunjut va boshqa ekinlarning botanika tavsifi agrotexnikasi va iqtisodiy ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Bundan tashqari ushbu mavzuga oid bir qator ilmiy maqolalar, tezislar hamda vikipediya saytida ham kunjut o'simligining turlari, xususiyatlari, ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, yetishtirish texnologiyasi, dorivorlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Asosiy qism:

Kunjut (*Sesamum indicum* L.) qadimdan oziq-ovqat, tibbiyot va kosmetika sanoatida qo'llanib kelinayotgan qimmatli o'simlikdir. Uning tarkibi foydali moddalar bilan boy bo'lib, inson salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Moy (o'simlik yog'i) Kunjut urug'larining 45–55% ini yog' tashkil qiladi. Ushbu yog' asosan quyidagi muhim yog' kislotalaridan iborat: Oleat kislotasi (omega-9) Linolat kislotasi (omega-6) Palmitat kislotasi. Urug' tarkibining 20–25% ini yuqori sifatli oqsillar tashkil qiladi. Ular aminokislotalar bilan boy bo'lib, hujayralarni tiklashda muhim ahamiyatga ega. Kunjut urug'larida 10–12% uglevodlar mavjud bo'lib, ular asosan murakkab polisaxaridlar shaklida bo'ladi. E vitamini (tokoferol): Tabiiy antioksidant sifatida organizmni erkin radikallardan himoya qiladi. A va K vitaminlari: Terining elastikligini oshiradi va qon ivishiga yordam beradi. Ular kuchli antioksidant xususiyatga ega bo'lib, xolesterin miqdorini kamaytiradi va yurak-qon tomir tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Oq va qora kunjut urug'lariga mavjud bo'lgan fitoserollar xolesterin hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi va qondagi xolesterin darajasini pasaytiradi.[5] Qora kunjut urug'lari Fe ga boy kamqonlik va zaiflikdan aziyat chekadiganlar undan foydalansa bo'ladi. Xitoy va Ayurveda tibbiyotga ko'ra qora kunjut urug'ini iste'mol qilish soching oqarishi ko'rishning xiralashishi quloqlarda jiringlash kabi keksayish alomatlarini kechiktirishi mumkin.[2]

Kunjut urug'larida ozuqaviy tolalar mavjud bo'lib, ular ovqat hazm qilishni yaxshilaydi va ichakni tozalashga yordam beradi.

Kunjut tarkibida ko'p miqdorda yog', oqsil, vitamin va minerallar mavjud bo'lib, u inson salomatligi uchun juda foydali. U yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olishda, suyaklarni mustahkamlashda va immunitetni oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan, kunjut yog'i va urug'lari kundalik ovqatlanishda keng qo'llaniladi.[3]

Kunjutni yetishtirish texnologiyasi. Kunjut issiqsevar va quyoshsevar o'simlik. Sovuqqa chidamsiz, qurg'oqchilikka chidamli. Kunjut bir bor ekilgan yerga 6-7 yildan keyin qayta ekiladi, chunki kasallik va zararkunandalar bilan ko'p shikastlanadi. Kunjut uchun unumdor, sho'rlanmagan va begona o'tlardan tozalangan yerlarni ajratish kerak bo'ladi. U yerning chuqur haydalinini talab qiladi.

Kunjut ekiladigan maydonlar begona o'tlar urug'idan tozalangan bo'lishi kerak, buning uchun kuzda yerga ko'proq nam to'plash kerak bo'ladi. Begona o'tlarning maysalari ko'ringandan keyin diskli borona bilan 5-8 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinadi.

Begona o'tlar bilan kam zararlangan yerlar aprel oyining boshlarida 8-10 santimetr chuqurlikda bir marta kultivatsiyalash yetarlidir. Ekishdan oldin yerlar egatlar orqali sug'oriladi. Sizot suvlari yaqin joylashgan o'tloqi va o'tloqibotqoq yerlarni ekishdan oldin sug'orilmasa ham bo'ladi. Asosan ekiladigan urug'larning sifatiga katta e'tibor berilishi kerak.

Urug'ning tozaligi 95-98 foiz va uning unuvchanligi 85- 95 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Kunjutning urug'ini tuproq harorati 15-16 gradus bo'lganda ekish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bahorda tuproq harorati 15-18°C bo'lganda qator oralari 60 sm, chuqurligi 2 sm qilib ekiladi. Gektariga 6-8 kg urug' sarflanadi. Kunjut o'sish davrida 2-3 marta kultivatsiya qilinadi, yagana qilinmaydi. 2-4 marta sug'oriladi. Gullaguncha 10-50 kg azot va 20 kg kaliy bilan oziqlantirib

sug'oriladi.

Gullagandan keyin gektar hisobiga yana azotli o'g'itlardan 30 kg va fosforli o'g'itlardan 20 kg dan berib sug'oriladi. O'sish davrida 3 marta sug'oriladi. Kultivatsiya va yaganalanadi, har 1 metrda 10 ta dan o'simlik qoldiriladi.[1]

Xulosa qilib aytganda, kunjut o'simligini dorivorlik xususiyatlarini o'rgangan holda, uni ko'paytirish va yetishtirish texnologiyalarini bilgan holda farmasevtikada qo'llaniladigan kunjut o'simligini urug'idan ko'paytirish yaxshi natija beradi. Bu o'simlikning dorivorligidan to'g'ri foydalanish, ular tarkibidagi moddalarni toza holda ajratib olish va ulardan dorivor preparatlar tayyorlab xalq tabobatida va tibbiyotda foydalanishni o'rganish lozim.

Kunjut nafaqat oziq-ovqat va sanoat uchun muhim xomashyo, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham alohida ahamiyatga ega. Uning ildiz tizimi tuproqni eroziyadan himoya qilishda yordam beradi, shuningdek, biologik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kunjut tarkibidagi noyob lignanlar (masalan, sezamolin) hujayra darajasida qarishni sekinlashtiradi va yallig'lanish jarayonlarini samarali ravishda bostiradi. Bundan tashqari, kunjut yog'ining mikrodozalari kosmetikada hujayralarni qayta tiklovchi sifatida samaradorligi isbotlangan. Shu sababli, kunjut inson salomatligi va atrof-muhit uchun strategik ahamiyatga ega o'simlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'.Ahmedov "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi" Shafolat nur fayz nashriyoti 2020y 48-51bet
2. A.Majidov."O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017-yil.67-bet
3. Xolmatov X.X, Ahmedov U.A "Farmakognoziya-1 qism" –Toshkent; Fan, 2007, 135-bet
4. Ibodova M.N. Kooperativ ta'lim asosida biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning integrativ yo'naltirilgan bilimlarini shakllantirishning metodik shart – sharoitlari. INTER EDUCATION GLOBAL STUDY Ilmiy-nazariy va metodik jurnal BUXORO – 2024 ISSN 2992-9024 (online) 2024, №6 192-199 b.
5. Ibodova M.N. Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishning integrativ texnologiyalari va metodik ta'minoti. KASB-HUNAR TA'LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 2024-yil, 7-son
6. Ibodova M.N. Akademik litseylarda biologiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik modeli O'zMU XABARLARI БЕСТНИК НУУЗ АСТА NUUZ MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI 2024 y 1/8/1 B 104-105
7. F. Karimov, H.Shamsiyev,I.Jo'rayevning 2010-yildagi "O'simlikshunoslik" kitobi